



Tadqiqot UZ



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 MART
№26**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
14 - ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
26-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-14**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
26-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-14**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 26-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

1. Sayfullayeva Barno MUSIQA VA INSON OLAMI.....	7
2. Xonova Nilufar Turobovna TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA DIDAKTIK PRINTSIPLARNING QO'LLANILISHI	9
3. Муродова Рисолат Даврон қизи ЎРОЛ ТАНСИҚБОЕВ ИЖОДИ ЎЗБЕКИСТОН АВАНГАРДИ КЕСИМИДА.....	10



ТАСВИРИЙ САЊАТ ВА ДИЗАЙН

MUSIQA VA INSON OLAMI

Sayfullayeva Barno

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy
rassomlik va dizayn instituti
magistratura bosqichi
“Zamonaviy va milliy rangtasvir”
mutaxassisligi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa san’atining jozibadorligi va uning tasviriy san’at bilan uzviy bog’liqligi va hamohangligi haqida bayon etilgan.

Annotation: This article discusses the appeal of the art of music and its inextricable link with the visual arts.

Kalit so’zlar: musiqa san’ati, kushon va so’g’d cholg’ulari, kompozitsiya, zarbli va puflama cholg’u, Ro’zi Choriyev “Botir Zokirov” portreti.

Keywords: music, Kushan and Sogdian instruments, composition, percussion and wind instruments, portrait of Rozi Choriyev «Botir Zokirov».

*“Musiqqa orqali biz o’z vaqtida xohlagan joyimizni
kezishimiz va har asrda do’stlar topishimiz mumkin.”
Xelen Tompson*

Musiqa san’atning noyob turlaridan biri sifatida juda qadimiy tarixga ega. Bu san’at turi barcha davr daholari e’tiborini o’ziga jalb qilib keldi. Tarixiy va ilmiy manbalarni o’rganish, tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, nomlari zikr etilgan buyuk siymolar o’zlarining ilmiy va pedagogik qarashlarida shaxs kamolotida musiqa san’atining keng imkoniyatlariga ega ekanligi e’tirof etganlar, ko’pchiligi esa bevosita musiqaga oid maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borishgan, musiqa bilan shug’ullanib, uning nazariy amaliy va tarbiyaviy asoslari to’g’risida ko’plab risolalar yozganlar. Chunonchi, buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiyning ilmiy merosi ro’yhatida uning musiqa sohasiga oid bir qancha asarlarini ko’ramiz. “Musiqqa haqida katta kitob”, “Ohanglar tasnifi haqida olam”, “Musiqqa haqida so’z”, “Ohangga qo’shimcha qilingan so’z” kabi asarlar shular jumlasidandir. Qadim zamonlardan beri turli madaniyatlar O’zbekiston hududida rivojlanib, gullab yashnagan va parchalanib O’zbekiston madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan. Musiqqa san’atiga kelsak u qadimgi davrlarga borib taqaladi. Hatto Kushon davri san’atkorlari tasvirlangan qadimgi musiqa an’analari va biz uchun go’zal yodgorliklar haqida hikoya qilinadi. Ulardan biri frizda qo’lida torli arfa shaklidagi asbob bilan ikkinchisi nayga o’xshash shamol asbobi bilan, uchinchisi esa cho’zinchoq shaklidagi ikki qirrali tanbur bilan. Bundan xulosa qilish mumkinki, kushonlar va so’g’dlar cholg’ularning asosiy turlarini bilishgan va ularni yakka va ansamblda ishlatishgan.

Darhaqiqat, insonni estetik tarbiyalashda, uning estetik didini o’stirishda musiqa tengsiz ahamiyat kasb etadi. Musiqa san’ati sharqning buyuk allomalari Beruniy, Farobiy, Ibn Sinolarni qiziqtirib kelgan. Bu haqida ular maxsus asarlar ham bitgan. Masalan, Ibn Sinoning “Al muddohil ila san’atal musiqiy” asari fikrimiz dalilidir. Mazkur asarda shunday yozadi: “Musiqqa hayotbaxsh, oliyjanob, axloqiy xususiyatlarni rivojlantiradi, u insonga xizmat qiladi. Uning axloqiy va ruhiy qiyofasini shakllantiradi.”¹

Mil. avv. VI asrdan beri musiqa faylasuflar uchun qiziqish obyektiga aylandi. P.Laton va Aristotel axloqiy tarbiyada musiqaning o’rni haqidagi ta’limotni ishlab chiqdilar.

San’atning turlari barcha san’at turlari bilan uzviy bog’liq va hamohangdir. Shu qatorda musiqa san’ati va tasviriy san’at ham uzviy bog’liqlikda bir-birini to’ldirib turadi, bir-biridan

¹ Ibn Sino. Al muddohil ila san’atal musiqiy. A. Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. Toshkent. 1992.



ilhom oladi. Qadimdan ma'lumki, musiqachilar va rassomlar do'st bo'lishgan. Ular ijodiy hamkorlik qilishgan. Buni misol tariqasida qadimdan rassomlarning o'z asarlarida ko'p musiqa, musiqachilar mavzusini ishlaganlaridan ko'rishimiz mumkin. Ular musiqa mavzuda turli janrlarda turli xil kompozitsiyalar ishlagan. Musiqachining o'z dunyosi, o'z olami bor. Buni biz uning o'z harakatlarida, gaplaridan, uning yashash olamidani ko'rishimiz mumkin. Bu narsalarni ko'rsatish uchun esa rassomdan musiqachilar bilan ko'proq suhbatda bo'lish kerakligini, ular bilan hamnafas bo'lish kerakligini ko'rsatadi. Shundagina kompozitsiya ishonarli, jonli chiqadi. Yuqorida aytganimizdek, musiqa haqida ko'p rassomlarning asarlari bor; ular musiqachilarning portretlarini, sahnada ijod jarayonlarini tayyorgarlik paytdagi holatlari yoki bo'lmasam o'zlarining musiqa haqidagi falsafiy asarlarini yaratishgan. Bulardan misol qilib biz Louris Leray, Efim Kovalenko, Aleksander Volkov, Edgar Dega, Konstantin Razumov, Keith Mallet, Vyacheslav Koretskiy kabi rassomlarni aytishimiz mumkin. Impressionist rassomlardan biri Fransiyalik Edgar Dega ham musiqa mavzusida, san'atkorlar hayotini ko'p ishlagan.

O'zbekiston tarixida ham san'atning rivojlanishi ancha asrlarga borib taqaladi. O'zbek xalqi musiqaning shaydosi. Bizda qadimdan musiqachilarga o'zgacha ehtirom ko'rsatilgan. Ularni hurmat qilingan. O'zbek rassomlari ham musiqa mavzusida ko'plab kompozitsiyalar yaratganlar. O'rta asrlarda ayniqsa, miniaturist rassomlarning ijodida musiqa mavzusi alohida ahamiyatga ega edi. Cholg'u asboblari chalayotgan guruh musiqachilarni ular kompozitsion qiziq holatda tasvirlaganlar. Hozirgi kunda biz Xurshid Ziyoxonov, Akmal Nur, Radik Azizov va boshqa rassomlarning ijodida ko'rishimiz mumkin. Masalan, Ro'zi Choriyevning "Botir Zokirov Portreti" asarida ijodkorni nozik tabiatini, uni musiqachiligini bir qarashda anglash mumkin. Sababi rassom Botir Zokirovni qo'llarini uzun va nozik qilib chizadiki, rassom uni shu nozik qo'llarda go'zal kuylar yaratganini, o'ta nozik did sohibi ekanligini, o'zining dunyosi borligini, hayollarida faqat musiqa, kuy ekanligini ko'rsatish uchun uni qizil kostyum shimda o'y surib o'tirgan holatda tasvirlaydi. Botir Zokirov uzoqlarga qarab o'zining keyingi ijod namunasi haqida o'ylayotgan bo'lsa ajabmas.

Xulosa qilib aytganda, men san'at maktabi va kollejida tahsil oldim. U yerdan ko'p musiqachi do'stlar orttirdim. Men ular bilan musiqa haqida ko'p gaplashardim va biz ko'p konsertlarga kirardik. Men ularni qoralama qilib chizardim. Musiqa san'atga bo'lgan mehrim tufayli bo'lsa kerak, bu mavzuda qilgan kompozitsiyalarim chiroyli chiqdi, barchaga ma'qul bo'ldi. Ustozim dissertatsiya ishimni shu mavzuda qilishimni maslahat berdilar, bu esa menga ma'qul bo'ldi. O'zbekiston Davlat Konservatoriyasida bo'lib, ko'p eskizlar va qoramalar ishlayotdaman. Ularni ko'p kuzatdim. Oldin bu mavzuda ishlagan rassomlarning ijod namunalari ko'rdim va o'rgandim. Kompozitsion yechimga ega, mukammal asar yaratishga harakat qilaman. Men oldimga qo'ygan o'z maqsadim bor. Boshqalarnikidan farq qiladigan, real ammo ijodiy yondashilgan kartina ishlayotchiman. Avangard yo'nalishi meni o'ziga rom etgan va shu yo'nalishda ishlayman. U o'zining realikka yaqinligi ammo rassomning nigohi bilan uyg'unlashib ketganligi sababli ham boshqa o'qimlardan ajralib turadi. Dissertatsiya ishim ham hayotiy, sahna, musiqachilar va ularning cholg'u asboblari, bo'ladi, lekin unga ijodiy yondashaman. O'zimning nigohimda, ranglarimda va o'zimning tasavvurimda yarataman. Ya'ni o'z kuyimni chalaman. Kompozitsiyada shakllar, ranglar ohangi yetakchilik qiladi. Shakllar kompozitsion uyg'unlikka xizmat qilsa, ranglar garmoniyasi musiqa ohangini anglatadi. Bilamizki, kuy ritmi, o'z garmoniyasi bor, qog'ozda esa buni ranglar orqali sezish mumkin. Men g'arb asboblari bilan iborat bo'lgan kompozitsiya ishlayman, unda ranglar garmoniyasi muhim ahamiyatga ega. Nega aynan g'arb zarbli va puflama cholg'u asboblari sababi kollej davrida bizning xona aynan shu fakultet oldida edi. Har tarafdin talabalarning ijrosi eshitilar edi. bu yoqmasdi, ammo men shu fakultetning konsertiga kirganimda, ular boshqa asboblari bilan birga shunaqangi chiroyli kuylar ijro etishganki, meni hayratda qoldirgan. Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, musiqa o'zining ohangrabo jozibasini bilan meni rom qilgan va men bu mavzuga yana ko'p murojaat qilaman deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. "Ma'naviyat" Toshkent. 2008.
2. N. Abdullayev. O'zbekiston san'ati tarixi. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent. 2007.
3. Istoriya muzika. I. A. Nikeyeva. L.R. Fattaxova. "Akademiya". Moskva. 2004.



TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA DIDAKTIK PRINTSIPLARNING QO'LLANILISHI

Xonova Nilufar Turobovna
Buxoro viloyati Peshko' tumani
39-maktabning tasviriy san'at,
chizmachilik o'qituvchisi
(+99 888 305 52 25)

Annotatsiya: Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning estetik tarbiyasini, ichki go'zalligini oshirish uchun darslarni samarali tashkil qilish lozim. Bunda darslarda didaktik printsiplardan foydalanishning ahamiyati katta.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, havo perspektivasi, ufq chizig'i, kesishish nuqtasi, kuzatish nuqtasi, ilmiylik printsiplari, ko'rgazmalilik printsiplari, naturani o'rganish.

Tasviriy san'at atrof – muhitni his etish, undagi voqea va hodisalarni o'ziga xos jihatlarini bilishni talab etadi. Shu boisdan tasviriy san'at darslarida o'quvchilar chiziqli va havo perspektivasi, yorug' soya, rangshunoslik kompozitsiya qonunlarini yaxshi bilishlari talab etiladi. Shuningdek, odam va hayvonlarning plastik anatomiyasi haqida yetarlicha ma'lumotlarga ham ega bo'lishlari lozim. Tasviriy san'at dasturida o'quvchilarning bu qonunlarni o'zlashtirishlari ko'zda tutiladi. Perspektiva qonunlarini o'zlashtirmasdan realistik tasvir yaratish mumkin emas desak mubolag'a bo'lmaydi. Rassom yoki o'quvchining rasm chizish uslubi har xil bo'lishi mumkin, lekin rasm yoki san'at asarlarining qurilishi bir xil, ilmiy asosda bo'lishi shart. Perspektiva qonunlar hisoblangan chiziqli va havo perspektivasi, ufq chizig'i, kesishish nuqtasi, kuzatish nuqtasi, buyumni bir yoki ikki kuzatish nuqtasi asosida rasmini ishlash, o'lchovlarni o'zgarish perspektivasi, och-to'qlikni o'zgarish perspektivasi, ranglarni o'zgarish perspektivasi, shakl va chegaralardagi aniqlikni kamayishi perspektivasi v.b. realistik rasm ishlashga o'rgatishning asosini tashkil etadi.

Ilmiylik printsiplari tasviriy san'at o'qituvchilaridan dars jarayonida va sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarga berilayotgan barcha material va ma'lumotlar ilmiy bo'lishligini maktab amaliyotida tekshirilgan hamda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishligini talab etadi. Tasviriy san'atni o'qitishda san'atning inson hayotidagi rolini tushina bilish juda muhimdir. Jumladan, san'at ijtimoiy ongning alohida shakli ekanligini nazarda tutish kerak. Tasviriy san'at o'qituvchisi shuni tushinishi kerakki, o'quvchilar borliqdagi narsalarni chizish jarayonida ularning faqat tashqi ko'rinishigina emas, balki uning ma'lum qonuniyatlariga asoslangan ichki tuzilishini ham bilib olishlari talab etiladi. Ko'p hollarda bu qonuniyatlarni bilmaydigan o'quvchilar buyumlarning shaklini to'g'ri tasvirlashda yanglishadilar.

Ko'rgazmalilik printsiplari tasviriy san'atni o'qitishda borliqdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilishga, uning xarakterli xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganishga ko'maklashadi. Bu esa o'quvchilarga mazkur sohaga bo'lgan qiziqishni jonlantiradi. O'quvchi naturadan rasm chizish jarayonida doim izlanadi shakllarni solishtiradi naturaning tuzilishi o'lchovlari shakllari rangi kabilarni bilib oladi. Shubhasiz bularning hammasi o'quvchilarda kuzatuvchanlikni rivojlanishiga olib keladi. Ma'lumki, bolalarda fikrlash konkretlikdan abstraktlikka borish jarayonida rivojlanadi. Tushincha va abstrakt qoidalar ma'lum dalil, misol va obrazlar bilan mustahkamlangandagina o'quvchilar ongiga oson yetib boradi. Ko'rgazmalilik tasviriy san'at darslarida boshqa o'quv predmetlaridagidek yordamchi emas balki o'quvchilarda tushuncha va tasavvurlar hosil qiluvchi asosiy materialdir. Naturaning o'ziga qarab rasm chizish darslarida uni naturasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu o'rinda tasviriy san'at darslarida ko'rgazmalilik printsiplarning roli juda katta. Darslar uchun ko'rgazmali kurslar tayyorlash va tanlashda ularga quydagicha talablar qo'yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov B. Tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirish omillari. – Toshkent: O'qituvchi,
2. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llari. – Toshkent: O'qituvchi
3. Internet ma'lumotlari.



ЎРОЛ ТАНСИҚБОЕВ ИЖОДИ ЎЗБЕКИСТОН АВАНГАРДИ КЕСИМИДА.

Муродова Рисолат Даврон қизи

Камолиддин Бекзод номидаги
Миллий рассомлик ва дизайн институти
музейшунослик йўналиши талабаси.
Телефон:+998(99)7957187.
risolatmurodova693@gmail.com

Аннотация: Мазкур изланишда авангард услубининг ўзига хос жиҳати, унинг Ўзбекистон рангтасвирида тутган ўрни ва унда самарали ижод қилган илк маҳаллий рассом Ўрол Тансиқбоевнинг ижоди Ўзбекистон авангарди кесими орқали ўзига хос жиҳатлари таҳлил этилади.

Калит сўзлар: Авангард, ранг суртмалари, портрет, модернизм, фовизм, кубизм, сюрреализм, неопрIMITизм, оқим, пластик-ифодавийлик, колорит,

Авангард XX асрнинг биринчи ярмидан бошлаб санъатнинг энг ёрқин, кенг қамровли бадиий йўналишларидан бири бўлиб илғор услубларни рассомлар ижодида ўзгача руҳият бериши учун катта ёрдамчи куч сифатида санъат майдонида паёдо бўлди. У турли ижодий услублар, оқимлар, концепциялар маъносадагина эмас, балки ўзининг географик маконида ҳам кенг қамровлидир.

Авангард ўзининг ижодий тамойилларини айнан фовизм, кубизм, дадаизм, сюрреализм орқали намоён эта борди. Бу йўналиш айниқса фантазияга бой бўлган рассомлар оқимини бирлаштирган.

Авангард Ўзбекистон рангтасвирида 1930 йилларнинг бошларида айнан Ўзбек рассомлари томонидан эркинлик, ижодий рух, бадиий оқимларнинг турли ижодий услублари қаторида кенг равишда ривож топди ва ўз номига эга бўлди.

XX асрнинг буюк мусаввири, Ўзбекистон халқ рассоми, Ўзбекистон Давлат мукофоти лауреати Ўрол Тансиқбоев Ўзбекистон авангардининг булоқбошисида турган модернист рассомдир. Ўрол Тансиқбоев 1930 йиллар рассом сифатида шаклланди, ўз асарларини халққа яқин ва тушунарли бўлиши учун тинмай меҳнат қилди.

Рассомнинг XX аср 1920-йиллари охири ва 1930-йиллар бошларида яратган асарлари ижодий шаклланиши ва кейинги даврларида ижодий ўсишига имкон берган ички қувватини таъкидлайди. Ў.Тансиқбоевнинг рассом сифатида шаклланаётган давридаги услуби, генезиси ва жўшқинлигини унинг асарлари аниқ намоён этади. Кўпгина ички омиллар ва ташқи таъсирлар ўзаро бирлашиб, Ў.Тансиқбоевнинг авангард йўналишини тез эгаллашига имконият берди.

Ўзбек авангардининг ўзига хос жиҳати бу миллий рангтасвирдан узоқлашмаган, миллат ва халқ урф-одатларини ҳисобга олган ҳолда айнан содда чизиқлар орқали берилиши билан белгиланади. Картинадаги образни типик жиҳатларига урғу бериш деярли барча авангард рассомлар ижодида учрайди.

Рассомнинг “Сариқ фондаги ўзбек портрети” (1934 й. Мато, мойбўёқ), “Қозоқ аёли” (1934 й. Мато, мойбўёқ), “Ўзбек. Самарқанд” (1934 й. Мато, мойбўёқ), “Боғчага” (1933 й. Мато, мойбўёқ) асарлари авангард услубидаги асарлари ҳисобланади. Ушбу асарларига эътибор қаратсак рассомга хос бўлган неопрIMITизм руҳиятини сезамиз.

Рассомнинг “Сариқ фондаги ўзбек портрети” (1934 й. Мато, мойбўёқ) асарида шакл, ранг, контур ва фоннинг ўзаро зиддияти асосига қурилганлигини кўрамиз. Унда Ўзбекистоннинг қуёшли ўлкасини англатиб турувчи сариқ рандаги фоннинг аксида, қуёшдан қорайган, меҳнаткаш инсон қиёфаси ён томондан тасвирланган. Айнан ранг-баранг либослар, унда образнинг пластик-ифодавийлиги Ў.Тансиқбоевнинг буюк рассом сифатида эътироф этилишига сабаб бўлган. Ушбу портретда биз авангардга хос оддий шаклларда ифодаланган чизиқларни, образнинг қиёфасини ва характерини очиқ бериш учун имкон яратган фовизм белгиларини ҳамда ўзбек мотивларининг тасвирланганини кўрамиз.

Ў.Тансиқбоевнинг авангард услубида ёзилган яна бир ажойиб асари “Ўзбек. Самарқанд” (1934 й. Мато, мойбўёқ) картинасидир. Рассом картинада бўрттириш чизгиллар орқали айнан ўзбек инсонини йиғма типдан фойдаланган ҳолда юз-қиёфасини тасвирлаган. Уму-



мий картина фонининг кўп қисмини олов ранг ташкил этиб, у аввало ўлкамиз иқлимига ишора қилмоқда. Ушбу картинада ҳам ўзбек қиёфаси ён томондан тасвирланган. Унинг орқа фонида мужассам бўлган уйларнинг содда чизиклари, табиат олами ҳамда ундаги примитизмга йўғрилган жониворлар тасвири айнан муҳитни бера олишга ёрдам берган.

Ў.Тансиқбоевнинг “Қозоқ аёл” (1934 й. Мато, мойбўёк) портрети Ўзбек авангарднинг ўзига хос жиҳати билан эътиборлидир. Рассом асарда маҳобатли ва меҳнаткаш қиёфасидаги қозоқ аёлини бўй баста орқали тасвирлаган. Картинада ранглар ўйини, шакллар соддалиги, колоритнинг бир-бирига уйқашлиги, умумий композицияни очиб беришда муҳим ҳисобланади. Асардаги аёл қиёфаси куёш нуридан тобланган, бу эса образни янада рассом томонидан меҳнаткаш аёл қиёфасини тасвирлашда муҳим аҳамият касб этган. Қозоқ аёл қиёфаси ва орқа пландаги уйлар ҳамда кўчалар оддий, содда чизиклар неопримитизм усулида тасвирланган.

Мухтасар қилиб айтганда Ў.Тансиқбоев буюк шахс ва рассомдир, унинг ижодини йиллар давомида очиб бериш санъатшунослар томонидан илмий изланишларида кенг тадқиқотлар олиб борилмоқда. Рассомнинг бир дона санъат асарини кўлга олган санъатшунос уни соатлар дақиқасида фикрлаб, мулоҳаза юритиб бериши мумкин. Шу боис ҳам унинг асарлари Ўзбекистон Давлат санъат музейи ва И.В.Савицкий номидаги Давлат санъат музейида алоҳида зал сифатида намойишга қўйилиб келинмоқда. Ҳозирги кун рассомлари учун Ў.Тансиқбоев техникаси ва асарлари дастурамал намунадир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Абдуллаев Н. Ўзбекистон санъати тарихи.-Т.:Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2007.
2. Ахмедова Н.Урал Тансиқбоев в зеркали времени. Тошкент:Санъат Н:4.2014 йил.
3. Ahmedova N.Avangard-erkinlikka intilish.//J.SAN'AT, 4/2000.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(14-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2021

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000